

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

Jild 3, Son 12/1

**2023**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 12/1 (3)-2023*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### *12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемурастов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳақимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Тошкент давлат юридик университети.

### *13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги

педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

### *19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

### *22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодири Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

### *23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

## **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.  
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
масъулияти чекланган жамият.

## **Таҳририят манзили:**

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

Телеграм канал: [https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Елмуратов Икматулла Гайбуллаевич</i> ҚОРАҚАЛПОҒИСТОНДАГИ БИРИНЧИ ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ ТАРИХИ (1931-1936 ЙИЛЛАР) .....	12-18
<i>Qitaybekov Azizbek Kenesbek o'g'li</i> QORAQALPOG'ISTONDA HAVO TRANSPORTINING SHAKLLANISHIDA "DOBROLET" AKSIYADORLIK JAMIYATINING O'RNI .....	19-23
<i>Nawrizbaeva Nurjamal Qudaybergenovna</i> QORAQALPOQLARNING GILAMCHILIGI BILAN BOG'LIQ BA'ZI MAROSIMLAR .....	24-29
<i>Сайдуллаев Фаррух Умедулло ўғли</i> МУҲАММАД ҲАКИМ ТЕРМИЗИЙНИНГ ЭТНОЛОГИК ВА ЭТНОГРАФИК ТАДҚИҚОТЛАРИ .....	30-35
<i>Berdiqulov Mirolim Tugalvoyevich</i> ТО'ДА-1 NEOLIT MAKONINING O'ZBEKISTON TOSH DAVRI ARXELOGIYASINI O'RGANISHDAGI O'RNI .....	36-40
<i>Olimjonova Gulida Olimjon qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT VOJXONA XIZMATI ORGANLARI FAOLIYATI ..	41-47
<i>O'ng'alov Lazizbek Amiriddin o'g'li</i> NUROTA TOG' TIZMASINING TOSH DAVRI ARXELOGIYASINING O'RGANILISH TARIXI..	48-53
<i>Rahmonov Faxriddin Shoymardonovich</i> MILLIY DEHQONCHILIK MADANIYATINI ETNO-TARIXIY MANBALARDA AKS ETISHI (JANUBIY O'ZBEKISTON MISOLIDA) .....	54-58
<i>Tilavboyev Muhammad</i> JIZZAX VOHASIDA OT BILAN BOG'LIQ URF-ODATLAR VA MAROSIMLAR .....	59-63
<i>To'xtaboyev Xurmatullo Shomirza o'g'li</i> O'ZBEKISTON ILM-FANI RIVOJIDA FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETINING O'RNI (MUSTAQILLIK YILLARI MISOLIDA) .....	64-68
<i>Рахматиллаев Хасанбой</i> МАРКАЗИЙ ОСИЁНИНГ ҚАДИМГИ ДАВР ЭТНИК ТАРИХИНИ ЁРИТИШДАГИ АЙРИМ МУАММОЛИ МАСАЛАЛАР ВА УСУЛЛАРГА ДОИР .....	69-74
<i>Qurbonova Manzila Boqiyevna</i> BUXORO VOHASI MILLIY SHIRINLIKLARI VA ICHIMLIKLARI .....	75-80
<i>Ravshanova Gulora</i> QASHQADARYO VOHASIDA MUNTAZAM QUROLLI HARAKATLAR TA'MINOTI (XX-asrning 20- yillarida) .....	81-85
<i>Зарипбаев Уснатдин Оракбаевич</i> ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ЙИЛЛАРИДА ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН АССР ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИ ФАОЛИЯТИ .....	86-90

<i>Baxronov Abdullo Haydar o'gli</i> O'ZBEKISTONDA TOSH DAVRI ARXELOGIYASINI O'RGANISHDA XALQARO EKSPEDISIYALARINING O'RNI .....	91-95
<i>Maxmatqulov Jasur Isroil o'g'li</i> GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASH MAVZUSINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI .....	96-101
<i>Esanova Nilufar</i> O'ZBEKISTON-TURKIYA HAMKORLIGI VA UNING NATIJASI (TO'QIMACHILIK SANOATI MISOLIDA) .....	102-106
<i>Норбоев Сарвар Қахрамон ўғли</i> АФРОСИЁБДАГИ СЎҒД МУДОФАА ДЕВОРИГА ОИД ТАДҚИҚОТЛАРИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ (XX АСРНИНГ 50-80-ЙИЛЛАРИ).....	107-111
<i>Эсонов Зиёдбек Юлдашевич</i> ФАРҒОНА ВОДИЙСИ АҲОЛИСИ ТЎҚИМАЧИЛИК ҲУНАРМАНДЧИЛИГИ АНЪАНАЛАРИ .....	112-117
<i>Tishabayeva Irodaxon Rasulovna</i> 1960-1970 YILLARDA O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TARBIYA MUASSASALARI FAOLIYATI .....	118-124
<i>To'xtamishева Fotima Musurmonovna</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA QASHQADARYO VOHASI KASHTADO'ZLIGIDA O'ZGARISHLAR.....	125-132
<i>Sattorov Nurbek</i> SHIMOLIY BAQTRIYA VA ZARAFSHON MINTAQALARIDA DEHQONCHILIK VA CHORVACHILIK MADANIYATI SOHIBLARI ETNOMADANIY ALOQALARINING O'ZBEK XALQI ETNOGENEZI SHAKLLANISHIDAGI O'RNI .....	133-138
<i>Hazratov Nurali Burxon ug'li</i> QADIMGI KESH VILOYATI HUDUDIDAGI ARXELOGIK YODGORLIKLARINING O'RGANILISH TARIXIDAN .....	139-144
<i>Mamatqulov Bekzod Sherzovich</i> O'ZBEKISTONDA GAZ-OLTINGUGURT SANOATINING YUZAGA KELISHI VA UNING RIVOJLANISH TARIXI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA).....	145-149
<i>Berdiyev Jamshid</i> VOHA JOY NOMLARINING SHAKLLANISHIDA ETNONIMLAR VA PATRONIMLARNING TUTGAN O'RNI .....	150-155
<i>Djurakulov Sherzod Davronovich</i> SAMARQAND VILOYATI HUDUDIDI TOSH DAVRI ARXELOGIYASINING O'RGANILISHI TARIXI .....	156-161
<i>Қурбанова Дилрабо Шерипбоевна</i> ПАРЛАМЕНТ ТАРИХИ ВА ТАРИХШУНОСЛИГИ .....	162-172

<i>Зухриддин Болтаевич Жунаев</i> ХОРАЗМДА РЕСПУБЛИКА ТУЗУМИ: ЮТУҚЛАР ВА МУАММОЛАР (1920-1924 йиллар) .....	173-181
<i>Mamadiev Voxodir Bobojonovich</i> QASHQADARYO MUZEYIDAGI NODIR OSTODON .....	182-186
<i>Norqo'chqarov Xushvaqt Eshnazarovich</i> AFG'ONISTONDA O'ZBEK TILINING QONUNIY ASOSLANISHI, O'ZBEKLAR IJTIMOYIY-MADANIY HAYOTIDAGI O'RNI (XX ASR – XXI ASR BOSHLARI) .....	187-197
<i>Ибрагимов Рахмон Зиёдуллаевич</i> ТОШКЕНТ ВОҲАСИ СЎНГГИ БРОНЗА ДАВРИ ТАРИХИ ТИЗИМИДА: ДАФН УДУМИ ВА МИГРАЦИЯ МАСАЛАЛАРИ .....	198-203
<i>Азаматова Гулмира Байирбековна</i> ОДАМ САВДОСИГА УЧРАГАН МИГРАНТ ХОТИН-ҚИЗЛАР ҲАҚИДА БАЎЗИ МУЛОҲАЗАЛАР .....	204-208
<i>Tishabayeva Iroдахon Rasulovna</i> 1960-1970 YILLARDA O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TARBIYA MUASSASALARI FAOLIYATI .....	209-215
<b>08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ</b>	
<i>Ostonokulov Azamat Abdukarimovich, Inoyatov Mardonbek Mo'min o'g'li</i> DAVLAT SEKTORIDA ICHKI AUDITNING XALQARO STANDARTLARI .....	216-226
<i>Kurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich</i> O'ZBEKISTONDA KORPORATIV BOSHQARUV TASHKILYIY- IQTISODIY MEKANIZMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI .....	227-232
<i>Отабеков Отажон Ғайрат ўғли</i> ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ОПТИМАЛ СОЛИҚ ЮКИ ВА ИҚТИСОДИЙ ЎСИШ МАСАЛАЛАРИ .....	233-243
<i>Шакирова Фароғат Болтаевна</i> ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА БАҲОЛАШ ИНДИКАТОРЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ .....	244-255
<i>Мамбетназаров Бахыт Бисенбаевич</i> ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА ТАДБИРКОРЛИК СУБЪЕТЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ .....	256-263
<i>Jumaniyazova Ro'za Quvondiq qizi</i> TURIZM INFRATUZILMASI TUSHUNCHASI VA UNING O'ZIGA XOS JIHATLARI .....	264-269
<i>Matniyozov Murodjon Rajabbayevich</i> DESTINATSIYA IMIDJINI SHAKLLANTIRISHDA TURISTLARNING SODIQLIGI VA QONIQLASHINING AHAMIYATI .....	270-278

<i>Хамидова Зарифа Урол қизи</i> ДАВЛАТ СЕКТОРИДА ИЧКИ АУДИТ ВА ДАВЛАТ МОЛИЯВИЙ НАЗОРАТ ТАДБИРЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ .....	279-291
<i>Toshaliyeva Saodat Toxirovna</i> KICHIK TADBIRKORLIK TUSHUNCHASI VA UNING IJTIMOIIY-IQTISODIY MONIYATI ....	292-296
<i>Худойназаров Фахритдин Хаитович</i> ИБН ХАЛДУННИНГ ИҚТИСОДИЁТГА ТАВСИЯЛАРИ .....	297-304
<i>Nurullayev Hoshimjon Hamidovich</i> GASTRANOMIYANING TURIZM RIVOJLANISHIDAGI ANAMIYATI .....	305-313
<i>Кадырова Шарофат Амоновна</i> ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ ....	314-323
<i>Бегматова Зиёда Захиджановна</i> ДАВЛАТ ИНТЕРАКТИВ ХИЗМАТЛАРИ ТИЗИМИ АСОСИДА КАДРЛАР БАНДЛИГИНИ ВА УЛАРГА ТАЛАБНИ БАҲОЛАШ .....	324-332
<i>Shafkarov Bakhrom Khudoyberdievich</i> TERRITORIAL FEATURES AND THEIR EFFECTIVE USE IN THE CULTIVATION OF VITICULTURE PRODUCTS .....	333-340
<i>Masharipova Fazilat Axmedovna</i> OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING ANAMIYATI .....	341-348
<i>Мусинов Дилшод Султанович</i> ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНИНГИ ИЖТИМОИЙ ВА ИҚТИСОДИЙ САМАРАДОРЛИГИ ИҚТИСОДИЙ ЎСИШ ОМИЛИ СИФАТИДА .....	349-359
<i>Шакирова Юлдуз Сайдалиевна</i> ВОПРОСЫ РАЗРАБОТКИ ДОРОЖНОЙ КАРТЫ АКТИВИЗАЦИИ ИННОВАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ .....	360-368
<i>Абдивоҳидов Мамуржон Авазхон ўғли</i> РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНИНГ МАЗМУНИ, ТАВСИФИ ВА РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ .....	369-380
<i>To'xtasinova Muxayyo Mirzasultonovna</i> DAVLATNING INNOVATSION TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MASALASIGA .....	381-388
<i>Қурбанова Раҳима Джамшедовна, Мирзаева Ширин Нодировна</i> РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В СТИМУЛИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ .....	389-403
<i>Набиева Нилуфар Муратовна</i> ОСОБЕННОСТИ КОМПЛЕКСА МАРКЕТИНГОВОГО ПРОДВИЖЕНИЯ КОМПАНИИ В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ .....	404-416

<i>Safarov Radjabboy Eshmuxammadovich</i> KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDA INDIVIDUAL DAROMADGA SOLIQLAR MEKANIZMIDAN SAMARALI FOYDALANISH MASALALARI .....	417-428
<i>Sharipova Zulayho</i> SANOAT TARMOQLARI KLASTERLARINI RIVOJLANTIRISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI .....	429-434
<i>Шарипов Акбар Илхамович</i> ЧАКАНА САВДО КОРХОНАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА РАҚАМЛИ МАРКЕТИНГНИ РОЛИ .....	435-440
<i>Хаджаев Хабибулла Сагдуллаевич</i> ОБЪЕКТИВНАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ И ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ АНТИМОНОПОЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ В РАЗВИТИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ .....	441-447
<i>Хамзайева Дилфуза Самаровна</i> SURXANDARYO VILOYATIDA TURISTIK MAHSULOTLARNI BAHOLASH VA SAMARALI RIVOJLATIRISH IMKONIYATLARI .....	448-452
<i>Усманова Насиба Акбаржоновна</i> ПУТИ РАЗВИТИЯ МЕНЕДЖМЕНТА В СФЕРЕ УСЛУГ .....	453-459
<i>Исхакова Сарвар Аюбовна</i> ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ И ЕЕ ВЛИЯНИЕ НА ЗАНЯТОСТЬ И КВАЛИФИКАЦИЮ ПЕРСОНАЛА В СФЕРЕ БЫТОВОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ .....	460-467
<i>Ollanazarov Bekmurod Davlatmurotovich</i> INNOVATSION TADBIRKORLIKNI MOLIYALASHTIRISHDA MUQOBIL MOLIYALASHTIRISH VOSITALARIDAN FOYDALANISH VA UNI TURISTIK XIZMATLAR SOHASIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI .....	468-479
<i>To'uchiyeva Nodira G'ulom qizi</i> OLIY TA'LIMNI BOSHQARISHDAGI INNOVATSIYALAR. CHAT GPT YOHUD SUN'IY INTELLEKT .....	480-485
<i>Абдурахимова Саида Аҳмаджановна, Адилова Гўзал Абзаловна</i> ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА КИЧИК БИЗНЕС СУБЪЕКТЛАРИ ТАРКИБИЙ ҚИСМЛАРИНИНГ БАРҚАРОР РИВОЖЛАНИШ ТАҲЛИЛИ .....	486-494
<i>Maxsudov Sherzod Solijonovich</i> TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA INVESTITSION MUHIT JOZIBADORLIGINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI .....	495-500
<i>Tadjibekova Dilnoza Bakhtiyarovna</i> ENHANCING FINANCIAL RESOURCE FORMATION IN BUSINESSES .....	501-506
<i>Radjabova Malika Ziyodullayevna</i> AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH ISTIQBOLLARI XUSUSIDA .....	507-512

## 09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

<i>Asraqulova Adiba Nabiyevna</i> ZAMONAVIY DAVRDA IQTISODGA FALSAFIY QARASHLAR .....	513-520
<i>Жўраев Аҳмад Муҳаммадиевич</i> ТИНЧЛИКПАРВАРЛИК ҲОЯЛАРИНИНГ ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИДАГИ АҲАМИЯТИ .....	521-530
<i>Гуламова Мавжуда Ташпулатовна</i> АХМАД ЗИЁУДДИН АЛ-КУМУШХОНаВИЙ АСАРЛАРИДА КОМИЛ ИНСОН ҲОЯЛАРИНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛИ .....	531-538
<i>Abduxolikova Nasiba Alijonovna</i> YOSHLARNING ONLAYN TA'LIM JARAYONIGA TA'SIR ETUVCHI IJOBIIY SALBIY OMILLAR .....	539-544
<i>Yazdonov Zikirillo Shukurilloevich</i> QALANDARIYLIK VA UNING INSON, JAMIYAT TIZIMIDAGI O'RNI .....	545-552
<i>Sharipova Barno Salimovna</i> BIOETIK MADANIYATNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA UNING ZAMONAVIY IMIJI .....	553-558
<i>Xalikulova Umida Rustamovna</i> AXBOROT MUHITINING OLIY TA'LIMGA TA'SIRI: KONSTRUKTIV VA DESTRUKTIV OMILLAR .....	559-564
<i>Abbasova Maftuna Subxonovna, Temirova Xurshida</i> OILA VA NIKOH MA'NAVIYATI, OILANI MUSTAHKAMLASH OMILLARI .....	565-571
<i>Tog'ayev Nodirjon Ergashevich</i> AJDODLARIMIZ BOY ILMIY MEROSINING O'ZBEKISTONDA MA'RIFATLI JAMIYAT QURISH HAMDA YOSHLAR TARBIIYASIDA TUTGAN O'RNI .....	572-576
<i>Kipchoqov Xomidjon Gulomovich</i> JAVOBGARLIK PRINSIPINI SHAKLLANTIRISH AXLOQSHUNOSLIKNING ASOSIY MASALASI SIFATIDA .....	577-581
<i>Raximova Rayxon Abdurasulovna</i> ZAMONAVIY OILADA MA'NAVIY-AXLOQIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH: MUAMMONING NAZARIY VA USLUBIY TAHLILI .....	582-586
<i>Агзамова Нилюфар Шухратовна</i> “АДАБ АЛЬ-ТАБИБ” КАК ИСТОЧНИК НАЦИОНАЛЬНОЙ БИОЭТИКИ .....	587-591
<i>Axmadiyev Nuriddin Muxutdinovich</i> INTELLEKTUAL MADANIYAT YOSHLARNING INNOVATSION FAOLLIGINI OSHIRISHNING MUHIM MEZONI SIFATIDA .....	592-596
<i>Nabiyev Mansur Jamxur o'g'li</i> DEMOKRATIK JAMIYAT TARAQQIYOTIDA IJTIMOIIY G'OYALAR EVOLYUTSIYASI VA MODERNIZATSIIYASI .....	597-603

<i>Kenjayeva Dilrabo Romanovna, Xaydarova Larisa Sunnatovna</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY MADANIYAT SOHASIDAGI O'ZGARISHLARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI .....	604-609
<i>Abduraximova Tursunoy Abduvoxid qizi</i> O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM TRANSFORMATSIYASINING FALSAFIY MOHIYATI .....	610-615
<i>Tagayev Ganisher Xasanovich</i> YOSHLAR ETNOESTETIK DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISHDA BADIY-ESTETIK OMILLARNING O'RNI .....	616-625
<i>Шоназаров Жамшид Шуҳратович</i> БЕҲБУДИЙ ВА УНИНГ ДАВЛАТЧИЛИК ҲОЯСИ .....	626-630
<i>Ҳамраев Сирож Абруевич</i> ЖАМИЯТ ЯНГИЛАНИШИ ВА ТАДБИРКОР МАЪНАВИЯТИ .....	631-637
<i>Nabiyev Bekzod Muxammadumarovich</i> MAFKURAVIY ISHLARNI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY TARG'IBOT TEXNOLOGIYALARI: O'ZBEKISTON VA XORIJ TAJRIBASI .....	638-642
<i>Hashimova Gulsina Ismoyilovna</i> HARBIY IJTIMOYIY ISH VA HARBIY MADANIYATNING HARBIY XIZMATCHILAR FAROVONLIGINI TA'MINLASHDAGI ROLI .....	643-648
<i>Karimova Gulnoza Yigitaliyevna</i> AXLOQIY MADANIYAT TUSHUNCHASINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOYIY ZARURIYATI .....	649-655
<i>Sharipova Kamola Usmonjonovna</i> YANGI O'ZBEKISTONDA GENDER TENGLIKNI TA'MINLASH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASINI MILLIY STRATEGIYAGA TRANSFORMASIYALASH ISTIQBOLLARI .....	656-661

*09.00.00- Фалсафа фанлари*

**Abbasova Maftuna Subxonovna**  
Samarqand davlat universitetining  
Kattaqo'rgon filiali o'qituvchisi (PhD)

**Temirova Xurshida**  
Samarqand davlat universitetining  
Kattaqo'rgon filiali filiali o'qituvchisi

### **OILA VA NIKOH MA'NAVIYATI, OILANI MUSTAHKAMLASH OMILLARI**

**Annotatsiya.** Maqolada oilaning tarixiy shakllanishi, oila va nikoh tushunchasi, ma'naviy-axloqiy tamoyillari, jamiyatda oilaviy ajrimlarning salbiy oqibatlari va oilani mustahkamlash omillari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** oila, jamiyat, nikoh, farzand, tarbiya, qadriyat, ajrim, ota-ona, mahalla, ma'naviyat

---

**Abbasova Maftuna Subkhanovna**  
Teacher of Kattakorgon branch of  
Samarkand State University (PhD)

**Temirova Xurshida**  
Teacher of Kattakorgon branch of  
Samarkand State University

### **SPIRITUALITY OF FAMILY AND MARRIAGE, FACTORS OF FAMILY STRENGTHENING**

**Abstract.** The article talks about the historical formation of the family, the concept of family and marriage, spiritual and moral principles, the negative consequences of family decisions in society and factors for strengthening the family.

**Key words:** family, society, marriage, child, education, value, difference, parents, neighborhood, spirituality.

---

**Аббасова Мафтуна Субхановна**  
Преподаватель Каттакоргонского филиала  
Самаркандского государственного университета (PhD)

**Темирова Хуршида**  
Преподаватель Каттакоргонского филиала  
Самаркандского государственного университета

### **ДУХОВНОСТЬ СЕМЬИ И БРАК, ФАКТОРЫ УКРЕПЛЕНИЯ СЕМЬИ**

**Аннотация.** В статье говорится об историческом становлении семьи, понятии семьи и брака, духовно-нравственных принципах, негативных последствиях семейных решений в обществе и факторах укрепления семьи.

**Ключевые слова:** семья, общество, брак, ребенок, образование, ценность, отличие, родители, соседство, духовность.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I12.1Y2023N76>

Oila nikoh yoki tug'ishganlik bilan shakllangan, a'zolar umumiy iqtisodiy manfaatlar, o'zaro yordam va ma'naviy mas'uliyatlar bilan bir-biriga bog'langan chambarchas bog'liq birlikni hisoblanadi. Oilaning asosiy ijtimoiy funksiyalari qatoriga insoniyat zotini davom ettirish, bolalarni tarbiyalash, uning a'zolarining yashash sharoiti va bo'sh vaqtini samarali boshqarish kiradi. Bir oz avtonom sifatida qabul qilinishiga qaramay, oila dinamikasi hukmron ijtimoiy, iqtisodiy va mafkuraviy omillar ta'sirida shakllanadi, bu ta'sirlarga javoban rivojlanadi. Binobarin, har bir jamiyat tegishli oilaviy tuzilmalar va munosabatlarni belgilash va o'rnatishga olib keladigan o'zgarishlarni boshdan kechiradi.

Oila - bu qarindoshlik, nikoh yoki umumiy yashash joyi bilan bog'langan shaxslardan iborat ijtimoiy birlik. Ko'pgina madaniyatlarda oila bolalarni ijtimoiylashtirishning asosiy institut hisoblanadi. Oila kontseptsiyasi jamiyat taraqqiyotining boshidanoq tarixiy mavjud bo'lmagan. Ibtidoiy jamoa tuzumining ilk bosqichida, kishilar to'da-to'da bo'lib yashayotgan davrda jinslar orasidagi munosabatlar muayyan tartib-qoidaga ega bo'lmay, to'dadagi barcha erkaklar va ayollar bir-birlariga umumiy er-xotin hisoblangan.

Tarixiy taraqqiyot jarayonida jinsiy munosabatlar asta-sekin muayyan tartibga solina boshlandi. Dastlab ota-ona bilan farzandlar, so'ngra aka-uka va opa-singillar orasidagi jinsiy munosabatlar taqiqlanib, guruhli oila paydo bo'lgan, lekin bu oilalarda hali er-xotin nikohi barqaror alohida xo'jalikka ega bo'lmagan. Bu davrda tabiiy omil o'z vazifasini tugalladi, ya'ni jinsiy munosabatlar doirasidan qon-qarindoshlar istisno qilindi, jinsiy munosabatlar faqat bir erkak va bir ayol munosabatiga aylandi.

Ijtimoiy ishlab chiqarish chorvachilik va dehqonchilikning rivojlanishi bilan rivojlanib borar ekan, erkaklar mehnatining ahamiyati ortib bordi, bu esa ishlab chiqarishdagi rolning oshishiga va ularning ijtimoiy mavqeini chuqur o'zgartirishga olib keldi. Mavjud normalar, ya'ni bolalar faqat onaga tegishli bo'lishi, qolaversa, mulkni onalik naslidan meros qilib olishi erkaklarning yangi mavqeyiga zid keldi. Oqibatda, otalik huquqiga asoslangan patriarxal oila tuzilishi vujudga keldi. Bu monogam oilaning paydo bo'lishiga olib keldi, zamonaviy individual oila tuzilishi uchun asos yaratdi.

Oila xalqning, jamiyatning hayoti, turmushiga oid urf-odatlarini o'zida sinovdan o'tkazadi. Yaxshilarini o'z bag'rida asrab-avaylab kelajak avlodlarga yetkazadi. Oila o'z farzandlarini tarbiyalab, ularga umuminsoniy qadriyatlarni singdirish bilan ularga boshlang'ich ijtimoiy yo'nalish beradi. O'z farzandlarini katta oqimga-jamiyatga qo'shish bilan esa oila jamiyat yo'nalishi, iqtisodiyoti, madaniyati va ma'rifatini ham belgilashga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shuning uchun ham Sharqda oila qadim-qadimdan muqaddas qo'rg'on hisoblanib kelingan. Xususan, o'zbek oilalarining serildizlik, serbutoqlik xususiyatlari hozir ham saqlanib turibdi. O'zbeklarda oilalarning muayyan turmush tarzi shakllanib hayotiy tajriba orttirib borishi, tejamli va sarishta ro'zg'or tutishi, farzandlarni odobli, ma'naviy yetuk bo'lib kamol topishida keksalar, ota-onaning roli katta. o'zbek oilalari o'zlarining mustahkamligi, saranjom-

sarishtaligi, bolajonligi, qarindosh qondoshlik rishtalarini hurmat qilishi, mehr-oqibatli va boshqa qadriyatlari bilan ajralib turadi [2].

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov 1998-yilni "Oila yili" deb e'lon qildi. Shunga asosan, oila manfaatlarini ta'minlash borasida amalga oshiriladigan tadbirlar to'g'risida davlat dasturi ishlab chiqildi. Shu yilda O'zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo'mitasi huzurida Respublika "Oila" ilmiy-amaliy markazi tashkil etildi va oilaviy hayot masalalarini huquqiy tartibga solishga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi qabul qilindi.

Oila har qanday jamiyat taraqqiyotida ma'naviy mas'uliyat, o'zaro hurmat, o'zaro tushunish va mehr-muhabbat bilan nikoh va yaqin qarindoshlik rishtalari bilan bog'langan kichik ijtimoiy birlik sifatida beqiyos o'rin tutadi. Tirik organizmning sog'lig'ini saqlashda hujayralarning o'zaro bog'liqligiga o'xshash oila asosiy tarkibiy qism sifatida davlat va jamiyatning umumiy farovonligiga hissa qo'shadi. Oila odamlarning hayoti va turmush tarzini tartibga soluvchi an'analarni sinash, bolalarga asosiy ta'lim-tarbiya berish, ularga boshlang'ich ijtimoiy yo'nalishni ta'minlaydigan umuminsoniy qadriyatlarni singdirishda o'ziga xos omil bo'lib xizmat qiladi. Har bir oilaning hayotiyliigi, ularda ijobiy psixologik muhitning qaror topishi, bu muhitda keyinchalik o'z millatining munosib fuqarosi bo'ladigan shaxslarning shakllanishi mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillardandir.

Har qanday nikoh ustidan bir narsa amr qilib turmog'i lozim: har bir odam o'z huzur-halovati uchungina emas, balki davlat manfaatlarini ko'zlagan holda ham nikohdan o'tmog'i kerak.[Aflotun].

Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidir. Nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi. Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi [10].

Insonning ma'naviy kamol topishi faqat oilada va maktabda shakllanadi. Bu o'rinda oilaning yoshlar ma'naviyatini shakllantirishdagi o'rni alohida ahamiyatga ega. Buni ma'naviyatning shakllanish jarayoni deb ataymiz. Shunday qilib oilada va maktabda shaxs ma'naviyati shakllantiriladi va bu ma'naviyat quyidagilardan iborat:

Ezgu sifatli xarakter. Bunda o'sib kelayotgan yosh avlodning insoniy fazilatlarga ega bo'lib ulg'ayishi tushuniladi.

Ezgu sifatli odob-axloq. Yosh avlod xulq-odobining milliy mentalitetga mos holda shakllanishi.

Sog'lom dunyoqarash. Yosh avlodning ongli, diyonatli, bilimli va dunyoviy taraqqiyotdan xabardor holda rivojlanishi.

Ijtimoiy faollik tuyg'usi. Yosh avlodning kattalar ishining haqiqiy davomchisi, kelajakning chinakam sohiblari sifatida voyaga yetkazishdagi asosiy kuch.

Bularning barchasi ma'naviyatni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Oilada va maktabda yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda o'zbek oilasining o'ziga xos tajribasi bor. Bunda quyidagilarni ta'kidlab o'tish mumkin:


- O'zbek oilasi o'ziga xos milliy tarbiya yo'nalishlariga ega.
- Oilada va maktabda inson xarakterini shakllantirish muhim o'rin tutadi.
- O'zbek oilasi inson xulq-odobining tugalmas manbaidir.

Ma'lumki islom dinining muqaddas manbalaridan bo'lmish Qur'on va Hadislarda ham odob-axloq, ayollarning turmushdagi o'rni va vazifalari, er va xotin o'rtasidagi munosabatlar, bolalar tarbiyasi, oila yuritish, nikoh va muhabbat masalalariga keng o'rin berilgan. Axloq-odob egasi bo'lgan inson eng avvalo o'z yurish-turishi, muomala madaniyatida, hayot kechirishida, oila barqarorligida namuna bolishi kerakligi haqida buyuk mutafakkir olim Abu Rayhon Beruniy fikrlari va ibratli qarashlarida shunday deyiladi, "Inson o'z ehtiroslariga hukmron, ularni o'zgartirishga qodir, o'z jon va tanini tarbiyalar ekan, salbiy jihatlari maqtagudek narsalarga aylantirishga, uni ma'naviy shifokorlik bilan davolashga hamda asta-sekin axloq haqidagi kitoblarda ko'rsatilgan usullar bilan illatlarni bartaraf etishga qodirdir" deydi[4].

Shunday ekan farzand tarbiyasida, oilaning mustahkamligida ota-onaning o'rni va roli beqiyosdir.

XI asrning buyuk mutafakkiri va shoiri Yusuf Xos Hojib o'zining "Qutadg'u bilig" – "Saodatga boshlovchi bilim" kitobida va undan keyingi qator asarlarida o'zining axloq hamda hayotga oid qarashlarini bayon etadi. Inson faqat jamiyatdagina kamolotga yetishi mumkin, muloqot va ijtimoiy foydali mehnat uning rivojlanishi va yashashining mezonidir, deb hisoblaydi. «Boshqa odamlarga foydasi tegmaydigan inson - o'likdir»[7], deb yozadi. Shoirning fikricha, farzand ko'rish va unga tarbiya berish har bir inson uchun buyuk baxtdir, ularsiz hayotning ma'nosi yo'q. Lekin bu narsa ota-onaga juda katta mas'uliyat yuklaydiki, uning uddasidan chiqmoq, har bir ota-ona uchun ham farz ham qarzdir. Shuning uchun ham Yusuf Xos Hojib oilaviy tarbiyani bola axloqiy taraqqiyotining asosi deb hisoblagan. Agar bolaning xulqi yomon bo'lsa, bunda bolaning aybi yo'q, hamma ayb otasida. Shuning uchun ham ota-ona, ayniqsa, ota bunga katta e'tibor bermog'i lozim.

Statistika agentligining dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilning 1-yanvari holatiga O'zbekiston Respublikasida 9 729 961 ta oilalar mavjud.



Oila har bir mamalakatning asosiy negizi hisoblanib, oilaning mustahkam bo'lishi jamiyatning taraqqiyotiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Hozirgi kunda butun dunyoda oilaviy inqirozlar davom etayotgan bir paytda, afsuski bu muammo bizning mamlakatimizni ham chetlab o'tmagan.

Statistikadagi ma'lumotlar bo'yicha 2022-yilda O'zbekistonda qayd etilgan nikohdan ajralish holatlari haqidagi ma'lumot raqamlari o'tgan yildagisi bilan taqqoslanganda 24 foizga oshgani ko'rinmoqda. Ya'ni 2022-yilda O'zbekistonda jami 48 734 ta oila nikohdan rasman

ajrashgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2021-yilda 39 227 tani tashkil qilgan. Hududlar kesimida nikohdan ajralish holatlari soni eng ko'p – Toshkent shahri, Farg'ona va Toshkent viloyatida kuzatilgan [8].

Shuningdek:

- Andijon viloyati - 5019 ta
- Samarqand viloyati - 4907 ta
- Namangan viloyati - 4394 ta
- Qashqadaryo viloyati - 3472 ta
- Surxohdaryo viloyati – 2810 ta
- Buxoro viloyati – 2561 ta
- Xorazm viloyati – 2138 ta
- Qoraqalpog'ston R. – 2067 ta
- Sirdaryo viloyati – 1764 ta
- Jizzax viloyati – 1728 ta
- Navoiy viloyati -1430 ta

Oilaviy ajrimlarning 34,3 foizi farzandsiz ajrashganlar, 41,9 foizi 1 nafar farzand bilan. Yangi oilalarning tinch va totuv bo'lib yashab ketishi bir kishiga bog'liq narsa emas. Buning uchun yangi qurilgan oila bilan birgalikda ota-onalar ham, oila tashqarisidagilar ham, keng jamoatchilik ham jon koyitmasa ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi.

Bugungi kunda mamlakatimizda oila masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani bejizga emas. Yurt taraqqiyotining tamal toshi jamiyatimizning asosiy bo'g'ini bo'lmish oilada qo'yiladi. O'zbekiston respublikasi prezidentining tegishli farmoni bilan 2022-yilning 1-martida Oila va xotin qizlar davlat qo'mitasi va uning hududiy bo'linmalari tashkil etildi. Qo'mitaning asosiy vazifalaridan biri Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab quvvatlashdan iborat bo'lib, uning hududiy bo'linmalarida ajrim yoqasiga kelib qolgan oilalarni yarashtirish masalalari ham olib borilmoqda. Xususan mahallalarda Oila va xotin-qizlar faoli, diniy idoradan vakillar yarashtirish komissiyasi a'zolari bo'lib, ular ajrim yoqasiga kelib qolgan oilalar bilan suhbat olib boradilar va ular bilan ma'naviy ma'rifiy masalalar bo'yicha ishlar oilb boriladi.

“Barcha fuqarolar oilaviy munosabatlarda teng huquqlarga egadirlar. Nikoh tuzish chog'ida jinsi, irqi millati, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyi hamda boshqa holatlarga qarab huquqlarni muayyan tarzda bevosita yoki bilvosita cheklashga, bevosita yoki bilvosita afzalliklar belgilashga hamda oilaviy munosabatlarga aralashishga yo'l qo'yilmaydi” [5].

Jamiyatda oilaviy ajrimlarning salbiy oqibatlarini natijasida noto'liq oilalar va tirik yetimlar soni ko'payadi. Aksariyat ijtimoiy xavfli jinoyatlar sodir etayotgan ayollar va voyaga yetmagan bolalar noto'liq oilalardan ekanligi kuzatiladi. Bugungi globallashtirish sharoit va jarayonlar oilaviy munosabatlarning buzilishiga ham o'z ta'sirini ko'satmoqda. Bu esa o'zbek oilalarida ko'p yillar davomida tarkib topgan va anchagina barqaror bo'lgan tuzilma va qadriyatlarining yemirilishiga olib kelmoqda. O'zbek oilalarida keng tarqalgan halollik, birovning haqqiga xiyonat qimaslik, saxovat va muruvvat, tejamkorlik, isrofgarlikka yo'l qo'ymaslik kabi fazilatlar milliy va diniy qadriyatlar zahirida shakllangan va ular oilaviy tarbiya natijasida ota-onalardan bolalarga o'tib, ularning ma'naviy dunyoqarashini boyitgan.

Oilaviy nizolarning kelib chiqishida yana bir sabablardan biri er-xotin o'rtasidagi munosabatlar bo'lib, bunda to'ydan bir necha yil o'tib erkak va ayol o'rtasidagi muhabbatning

ma'lum bir sabablarga ko'ra susayib borishidir. Bu sabablarga ayol tomondan: ketma-ket farzandlarning tug'ilishi va ro'zg'or tashvishlari bilan bo'lib tashqi ko'rinishiga e'tibor bermay qoyishi oqibatida erkak kishida juftiga nisbatan munosabatining o'zgarishiga va uchunchi shaxsning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Erkak tomondan: ayoli risoladagidek bo'lsa ham yillar o'tib ish va boshqa tashvishlar bilan bo'lib o'z ayoliga nisbatan e'tibor va mehrining kamayib borishi er-xotin o'rtasida o'zaro ziddiyatlarga sabab bo'ladi.

"Insonni erkak-ayolga ajratib, juft yaratishining o'zi Allohning biru borligi, barkamol sifatlar sohibi ekanining yorqin dalilidir. E'tibor ila tafakkur qilib ko'rilsa, insonning erkak va ayol qilib yaratilishining o'zi ulkan mo'jizadir. Alloh taolo insonning o'zidan unga juft yaratib berishining hikmatini bayon qilib: «sokinlik topishingiz uchun», demoqda. Darhaqiqat, erkak faqat ayolidangina sokinlik, orom, huzur-halovat, osoyishtalik va tinchlik topadi. Shuningdek, ayol ham o'ziga kerak sokinlik, orom, huzur-halovat, osoyishtalik va tinchlikni erkakdan topadi" [9].

Ajrim yoqasiga kelib qolgan oilalarni o'rganishda va ularni yarashtirish jarayonlarida nizolarning kelib chiqish sabablariga qarab yarashtirish komissiyasi a'zolari tarkibiga psixolog, tibbiyot xodimi va ijtimoiy ishchi mutaxassislarini kiritish lozim. Chunki ba'zi bir yosh oilalar o'rtasidagi nizolarga uchunchi shaxslar tomonidan aralashuvlar sabab to'ydan keyin kelin yoki kuyovga nisbatan isbotini topmagan ayblovlar qo'yilishi, turli xil kasalliklarni va ruhiy o'zgarishlarni bahona qilib ko'rsatilishi natijasida yoshlar o'rtasiga sovuqchilik tushib, oilani ajrim yoqasiga olib kelmoqda. Bu holatda mutaxassislar yoshlarga o'z tavsiyalarini va amaliy yordamlarini ko'rsatishga harakat qiladilar.

Oiladagi ajrim holatlarni o'rganishda ijtimoiy ishchi mutaxassislari yoshlarga oila buzilishining ijtimoiy salbiy oqibatlari va oilaning huquqiy asoslari haqida tushuntirish ishlarini olib boradilar, vaziyatni ijtimoiy tomondan o'rganadilar. Bu esa oilaviy ajrimlar soninig kamayishiga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Yuzlab odamlarning hayot tarzini o'zgartirib yuborayotgan, norasida go'daklarni ota-ona mehridan bebahra bo'lib voyaga yetishiga sababchi bo'layotgan ajrimlarning oldini olish va bu illatga qarshi hamjihat bo'lib kurash olib borish lozim. Shu bilan birga yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, ularni milliy urf-odat va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ibratli oilalar bilan tanishtirish, oila va mahalla institutini rivojlantirish ijobiy natijalarga olib keladi.

Oilaning asosiy vazifasi jamiyatga fidoyi komil insonlarni yetishtirib berishdan iborat. Zero, sog'lom bola bu sog'lom oilaning mevasidir. Sog'lom inson deganda, faqat jismoniy sihat-salomatlikni emas, balki o'zbek xalqiga xos sharqona odob-axloq, milliy g'oya va bag'rikenglik, insonparvarlik kabi ezgu his-tuyg'ular ruhida kamol topgan ma'nan yetuk insonni tushunishimiz mumkin. Zero, ma'naviy sog'lom insonlar avvalo yurt tinchligi, xalq farovonligi va xalqning ertangi kuni uchun qayg'ura oladilar. Bevosita oiladagi sog'lom muhit, sog'lom mafkura, ma'naviy sog'lom insonning tayanch manbaidir deya olamiz. Jamiyatimiz mustahkam tayanchi bo'lmish oila nafaqat ertangi kun shaxslarini tarbiyalaydi, balki vatan va ertangi kun uchun qayg'ura olish qobiliyatini ham shakllantira olishi shubhasizdir.

Ma'lumki, oila har bir jamiyatning boshlang'ich hujayrasi hisoblanadi. Halol va pok bo'lsa, jamiyat ham osoyishta, mustahkam, farovon bo'ladi. Aksincha, oilalarda parokandalik, buzg'unchilik bo'lsa, halol-haromning farqi qolmasa, o'sha jamiyat buziladi, tinchi yo'qoladi, oxir-oqibatu chuqur tanazzulga yuz tutadi. Shuning uchun ham qadimdan har bir jamiyat oila

masalasiga katta e'tibor berib, oilalarning mustahkam va baxtiyor bo'lishi uchun imkonida bor bo'lgan barcha chora va tadbirlarni ko'rib kelgan. Zotan, sof insoniy tabiat xuddi shunday bo'lishini taqozo qiladi.

Oila tinch totuv bo'lsa, ota ona o'rtasidagi munosabat samimiyat va mehr muhabbat asosiga qurilsa, farzandlar odobli, bilimdon va aqlli, mehnatsevar, iymon e'tiqodli bo'lib tarbiyalanadilar. Shunday ekan ma'naviyat qo'rg'oni bo'lmish oilani mustahkamlash barchamizning burchimizdir.

### Адабиётлар / Литература / References

1. A.V. Vaxabov va boshqalar. Ijtimoiy ish va ijtimoiy ta'minotga kirish: Darslik.- T.: "Iqtisod-Moliya", 2018. - 168 b.
2. G.G.Tagiyeva, H.T.Husanovaa. Oila va gender sotsiologiyasi. Darslik/-Samarqand:SamDU nashriyoti,2021.-252 b.
3. M. G'aniyeva va boshqalar. Ijtimoiy ish etikasi. Darslik. -T .: «Fan va texnologiya», 2015, 432 bet.
4. O.Hasanboyeva va boshqalar. Jamoa. Oila pedagogikasi. T., «Aloqachi», 2007, 384 bet.
5. Oila psixologiyasi: Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun /G ' . B. Shoumarov tahriri ostida./ - T.: «Sharq», 2003. - 272 b.
6. <https://lex.uz>
7. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 01.05.2023. <https://lex.uz/docs/-6445145>.
8. Yusuf Xos Xojib "Qutadg'u bilig".
9. [www.xabar.uz](http://www.xabar.uz)
10. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. «Бахтиёр оила» «Hilol-Nashr» нашриёт-матбааси. 528 бет.
11. <https://lex.uz/docs/-6445145>

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 12/1 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).